

**O'ZBEKISTONDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY
INVESTITSİYALARNI (TXXI) JALB QILISHNING INSTITUTSIONAL
ASOSLARI VA ULARNING HUDUDLAR BO'YICHA MUVOZANATLI
TAQSIMOTINI TA'MINLASH YO'LLARI**

Termiz Davlat Universiteti magistranti

Abdullayev Bobur Baxtiyor o'g'li

e-mail - abdullayevbobur1707@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy ish O'zbekiston Respublikasining xalqaro iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni (TXXI) jalb qilishning institutsional va hududiy jihatlarini kompleks tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolaning asosiy diqqat markazida investitsiya faoliyatining dinamikasi, iqtisodiy islohotlarning TXXI oqimiga ta'siri va xorijiy kapitalning hududlararo taqsimotidagi nomutanosibliklar yotadi.

KIRISH

Hozirgi davrda globallashtirish jarayonlarining jadallashtirish mamlakatlar oldiga iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish va xalqaro iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish kabi strategik vazifalarni qo'yimoqda. Bu jarayonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni (TXXI) jalb etish imkoniyatlarini kengaytirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ilmiy manbalarda ta'kidlanganidek, TXXI iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni jalb etish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va yangi ish o'rinlari yaratishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi.





Oxirgi yillarda dunyo mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, TXXI oqimini jalb qilishda davlat mulki va davlat ulushi mavjud xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish infratuzilmasidan samarali foydalanish, investorlar uchun barqaror va jozibador biznes muhitini yaratish, kichik biznes va raqobatbardosh ishlab chiqarishlarni qo'llab-quvvatlash muhim ustuvor yo'nalishlarga aylangan.

O'zbekiston iqtisodiy rivojida hududlarning roli beqiyos bo'lib, investitsiya jarayonlarini hududlar kesimida muvozanatli tashkil etish mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Amaldagi davlat dasturlarida investitsiya salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, investitsiya muhitini yaxshilash, yillik investitsiya dasturlarini sifatli shakllantirish, xorijiy investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish, xalqaro moliyaviy institutlar va yetakchi xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikni kengaytirish kabi vazifalar ustuvor sifatida belgilab berilgan.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tushunchasi mazmun jihatidan keng bo'lib, O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunida u chet ellik investor tomonidan hukumat kafolatlarisiz, mavjud tavakkalchilik sharoitida o'z mablag'lari yoki jalb qilingan qarz mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan investitsiya faoliyati sifatida izohlanadi [3]. Iqtisodchi olimlar fikriga ko'ra, TXXI investorning korxona faoliyati ustidan nazorat o'rnatish imkonini beruvchi kapital qo'yilmalari bo'lib, ular odatda korxona aksiyalarining kamida 10 foiziga egalik qilish shaklida namoyon bo'ladi [4–6].

Xorijiy kapital oqimining faqat ayrim hududlar va tarmoqlarda jamlanib qolishi boshqa mintaqalarning, ayniqsa sanoati yetarli darajada rivojlanmagan hududlarning iqtisodiy faolligini susaytirishi mumkin. Shu bois TXXI ni hududlar bo'yicha oqilona taqsimlash, investitsiya faoliyatining hududiy disbalanslarini kamaytirish, iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini bir tekis rivojlantirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri sanaladi.



ADABIYOTLAR TAHLILI

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari, ularning milliy iqtisodiyotga ta'siri va hududlar bo'yicha taqsimoti masalalari mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan. Ilmiy adabiyotlarda, avvalo, O'zbekiston iqtisodiyotiga xos bo'lgan institutsional islohotlar, investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar va investitsiyalar oqimini rag'batlantirishga qaratilgan siyosat asosiy tadqiqot yo'nalishlarini tashkil etadi.

Xususan, A. Sh. Arziqulovning tadqiqotida O'zbekistonda investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari chuqur tahlil qilingan bo'lib, muallif investitsiya siyosatini samarali shakllantirishda davlat boshqaruvi, hududiy iqtisodiy imkoniyatlar va investorlar uchun yaratilayotgan sharoitlarning hal qiluvchi o'rin tutishini ta'kidlaydi [Arziqulov, 2025]. U investitsion jarayonlarni tartibga soluvchi mexanizmlarni modernizatsiya qilish TXXI oqimining sifatini oshirishga xizmat qilishini qayd etadi.

Diyorbek Abdurazzakov va Xumoyun Egamberdiyev tadqiqotida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning O'zbekiston iqtisodiyotiga real ta'siri empirik ko'rsatkichlar asosida yoritilgan [Abdurazzakov; Egamberdiyev, 2025]. Mualliflar TXXI iqtisodiy o'sish, bandlik va sanoatning modernizatsiyasida muhim omil bo'layotganini ta'kidlaydilar. Shuningdek, ular investitsiyalar ta'sirining hududlar bo'yicha notekis taqsimlanishini muhim muammo sifatida ko'rsatadilar.

Khurshidbek Tolibjonov tomonidan olib borilgan tadqiqotda investitsiya siyosati bo'yicha olib borilayotgan islohotlar, ularning natijalari va institutsional o'zgarishlarning investitsiya muhitiga ta'siri amaliy misollar bilan tahlil qilingan [Tolibjonov, 2025]. Muallifning fikriga ko'ra, tartibga solishdagi soddalashtirishlar, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining kengayishi xorijiy kapital jalb etishda muhim rol o'ynamoqda.

Shuningdek, Yoqubov Latifjon iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini tahlil qilar ekan, ishlab chiqarish samaradorligi, texnologik yangilanish va xususiy sektor faolligini oshirish investitsiya oqimini kuchaytiruvchi asosiy shartlar ekanini ta'kidlaydi [Yoqubov, 2023].

Hududiy investitsiya jozibadorligi masalasi D. Kamilov va hamkorlari tomonidan o'rganilib, ular ixtisoslashgan hududlarni rivojlantirish orqali mamlakatga investitsiyalar oqimini ko'paytirish mumkinligini ilmiy asoslaydilar [Kamilov va boshq., 2024]. Tadqiqotda hududlarning infratuzilaviy imkoniyatlari, transport-logistika sharoitlari va resurslar salohiyati investitsiya qarorlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan.

Makroiqtisodiy barqarorlik va investitsiya siyosati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni A. Asaboevning ilmiy ishida ko'rish mumkin. U investitsion siyosatning iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rnini tahlil qilib, fiskal va monetar siyosat barqarorligi investorlar qarorlarida asosiy omillardan biri ekanini ta'kidlaydi [Asaboev, 2024].

G'ulomjonov G.'ning tadqiqotida O'zbekiston iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning o'rne, ularning tarmoqlar bo'yicha ta'siri hamda investitsion faollikning makroiqtisodiy natijalari yoritilgan [G'ulomjonov, 2024]. Muallif xorijiy kapital oqimini oshirish uchun investitsiya muhitini institutsional mustahkamlash zarurligini ta'kidlaydi.

TXXI samaradorligini baholash bo'yicha nazariy yondashuvlar R. Saydali tomonidan batafsil tahlil qilinib, investitsiya qaytimi, kapital unumdorligi va hududiy koeffitsientlar asosida investitsion samaradorlikni baholash metodlari taklif etiladi [Saydali, 2025]. Ushbu yondashuvlar investitsiya loyihalarining real iqtisodiy natijalarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Makroiqtisodiy barqarorlik omillari bo'yicha Eshqulova N. N.ning tadqiqoti esa iqtisodiy muhitning investitsiyalar oqimiga ta'sirini har tomonlama asoslab



beradi [Eshqulova, 2025]. Muallif iqtisodiy siyosatda izchillik, narxlar barqarorligi, fiskal intizom va institutsional ishonchlilik investitsiyalarni rag'batlantiruvchi asosiy omillar ekanini ko'rsatib o'tadi.

Umuman olganda, ko'rib chiqilgan adabiyotlar TXXI ni jalb qilish mexanizmlariga yondashuvlar, investitsiyalarning iqtisodiyotga ta'siri, hududiy investitsiya siyosati hamda makroiqtisodiy barqarorlik bilan bog'liq konseptual masalalarni qamrab oladi. Tadqiqotlarning umumiy xulosasiga ko'ra, investitsiya siyosatini institutsional kuchaytirish, hududlarda investitsion jozibadorlikni oshirish va investorlar uchun barqaror iqtisodiy muhit yaratish O'zbekistonning investitsiya salohiyatini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar

2010–2024 yillar davomida O'zbekiston Respublikasida investitsiyalar hajmi izchil ravishda oshib borgan bo'lib, bu davr iqtisodiyotning modernizatsiya jarayonlari, institutsional islohotlar va investitsiya siyosatining faollashuvi bilan tavsiflanadi. 2010 yilda 16,46 trln so'mni tashkil etgan investitsiyalar hajmi yillar o'tishi bilan barqaror o'sib, 2024 yilga kelib 507,49 trln so'mga yetgan. Bu esa 15 yil ichida investitsiya hajmi qariyb 31 barobarga ko'payganini ko'rsatadi.

2010–2016 yillarda investitsiyalar nisbatan barqaror, ammo o'rtacha sur'atlarda o'sib borgan bo'lib, ushbu davrda iqtisodiyot davlat investitsiyalariga tayanib rivojlandi. Mazkur yillarda yillik o'sish asosan infratuzilma, kommunal xo'jalik va sanoat obyektlarini modernizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lgan. 2017 yildan boshlab investitsiyalar hajmi keskin oshgan. So'mning erkin konvertatsiya qilinishi, biznes muhitining liberallashuvi, yirik infratuzilma loyihalari hamda xorijiy investorlar uchun yaratilgan qulay sharoitlarning kengayishi investitsiya oqimiga sezilarli turtki berdi. Natijada, 2017–2019 yillar orasida investitsiya hajmi 72,15 trln so'mdan 195,93 trln so'mgacha o'sdi.






2020 yilda pandemiya sharoitlariga qaramay, investitsiya faolligi saqlanib qolgan va investitsiyalar hajmi 210,19 trln so'mni tashkil etgan. Keyingi yillarda iqtisodiyotning tiklanishi, infratuzilma va energetika loyihalarining kengayishi, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining joriy etilishi investitsiya oqimlarining yanada ko'payishiga olib keldi. 2021–2023 yillar davomida o'sish sur'atlari barqaror saqlangan bo'lib, investitsiyalar hajmi 239,55 trln so'mdan 356,07 trln so'mga yetdi.

2024 yil esa investitsiya faoliyatining yangi bosqichi sifatida ajralib turadi. Bu yilda 507,49 trln so'mlik investitsiyalar jalb qilinib, o'sish sur'ati avvalgi yillarga nisbatan ancha yuqori bo'ldi. Energetika, transport-logistika, kimyo sanoati, konchilik, qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi tarmoqlarda amalga oshirilgan yirik loyihalar ushbu keskin o'sishning asosiy omillaridan biri bo'ldi. Shuningdek, xususiy sektorning faollashuvi, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikning kengayishi va xorijiy investitsiyalarning ortishi ham iqtisodiy jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Umuman olganda, 2010–2024 yillarda investitsiya hajmining jadal oshishi O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan chuqur institutsional o'zgarishlar, investitsiya muhitining yaxshilanishi va iqtisodiyotning ochiqlik darajasining ortishi bilan izohlanadi. Ushbu tendensiya mamlakatning iqtisodiy modernizatsiya strategiyasini tezlashtirgan va milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga muhim asos yaratgan.

Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (O'zbekiston Respublikasi) (yillik)
(mlrd so'm)



2000–2024 yillar davomida O‘zbekistonning barcha hududlarida asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi izchil ravishda oshgan. Respublika bo‘yicha bu ko‘rsatkich 2000 yildagi 23,2 foizdan 2024 yilda 69,4 foizga yetgan bo‘lib, mamlakatda investitsiya siyosatining liberallasuvi, xorijiy investorlar uchun yaratilgan sharoitlar va yirik sanoat loyihalari faollashganini ko‘rsatadi.

Hududlar kesimida eng katta o‘shish Andijon, Namangan, Navoiy, Buxoro va Jizzax viloyatlarida kuzatilgan. Masalan, Namangan viloyatida ulush 2,3 foizdan 82,3 foizga, Andijonda 4,5 foizdan 77,9 foizga, Buxoroda esa 10,5 foizdan 82,3 foizga oshgan. Bu hududlarda sanoat klasterlari, konchilik, kimyo sanoati va infratuzilma loyihalariga yo‘naltirilgan xorijiy kapital keskin ko‘payganini bildiradi.

Qoraqalpog‘iston, Qashqadaryo, Sirdaryo va Surxondaryo viloyatlarida ham o‘shish sezilarli bo‘lib, ulushlar 60–70 foiz atrofida shakllangan. Toshkent viloyati va Toshkent shahrida ko‘rsatkich nisbatan pastroq sur‘atlarda o‘sgan bo‘lsa-da, umumiy tendensiya ijobiydir.

Umuman olganda, 2000–2024 yillar davomida barcha hududlarda xorijiy investitsiyalar ulushi barqaror oshgan bo‘lib, bu O‘zbekiston iqtisodiyotining ochiqlik darajasi ortgani, hududlar investitsion jozibadorligi yuksalgani va iqtisodiy modernizatsiya jarayonlari faollashganini ko‘rsatadi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi

Klassifikator	2000	2010	2020	2024
O‘zbekiston Respublikasi	23,2	26,4	42,7	69,4
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	6,6	12,6	38,9	70,1
Andijon viloyati	4,5	8,2	36,3	77,9
Buxoro viloyati	10,5	63,2	48,2	82,3
Jizzax viloyati	28,9	7,6	61,9	75,6
Qashqadaryo viloyati	31,3	26,5	69,3	70,7
Navoiy viloyati	20,3	25,2	67,8	82,1
Namangan viloyati	2,3	4,7	37,2	82,3
Samarqand viloyati	13,3	3,2	27	59,6
Surxondaryo viloyati	4,9	5,2	60,1	62,4
Sirdaryo viloyati	21,7	9,6	48,7	70
Toshkent viloyati	31,1	16,4	26,7	71,3
Farg‘ona viloyati	27,3	12,3	41,3	60,9

Xorazm viloyati	9,5	9,8	32	59,2
Toshkent shahri	34,2	39,5	29,9	51,7

XULOSA

O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni (TXXI) jalb qilishning institutsional asoslari va ularning hududlar bo'ylab taqsimlanishidagi iqtisodiy oqibatlarini kompleks-tahliliy baholashga bag'ishlangan. Tahlil natijalari, mamlakatning so'nggi yillarda amalga oshirgan chuqur islohotlari tufayli investitsiya oqimida misli ko'rilmagan ijobiy siljishlar ro'y berganini, biroq xorijiy kapitalning hududiy muvozanatiga oid yechilishi zarur bo'lgan jiddiy muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Tadqiqotning eng muhim empirik xulosasi, O'zbekistonda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining 2010 yildan 2024 yilgacha bo'lgan davrda deyarli 31 barobar o'sishi hisoblanadi (16,46 trln so'mdan 507,49 trln so'mga). Bu keskin o'sish, ayniqsa 2017 yildan keyin institutsional muhitni liberallashtirish (valyuta siyosatining erkinlashtirilishi, biznes yuritish sharoitlarini soddalashtirish) bilan bevosita bog'liqdir. Xorijiy kapital va kreditlar ulushining umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi 23.2% dan 69.4% gacha oshganligi mamlakat iqtisodiyotining ochiqlik darajasi va xalqaro investorlar ishonchining mustahkamlanishini isbotlaydi. Shuningek, tadqiqotning eng muhim muammoli jihati xorijiy investitsiyalarning hududlar bo'ylab notekis taqsimlanishidir. Navoiy, Buxoro, Namangan va Andijon viloyatlari kabi yirik sanoat va resurslarga boy hududlarda TXXI ulushi 80% atrofida shakllangan bo'lsa, Toshkent shahri kabi an'anaviy markazlarda bu ko'rsatkich nisbatan pastroq (2024 yilda 51.7%). Bu degani, investitsiyalar asosan sanoat klasterlari va tayyor infratuzilmaga ega bo'lgan mintaqalarga jamlanmoqda. Bu holat, sanoati sust rivojlangan boshqa viloyatlarning iqtisodiy faolligini susaytirib, hududlar o'rtasidagi farqning yanada



oshishiga olib kelishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston xalqaro investitsiya xaritasida o'z o'rnini mustahkamlamoqda. Biroq, kelgusida iqtisodiy siyosatning asosiy ustuvor yo'nalishi TXXI oqimini nafaqat oshirish, balki uni hududlararo muvozanatli va sifatli taqsimlash orqali mamlakatning barqaror va inklyuziv (qamrab oluvchi) o'sishini ta'minlashdan iborat bo'lishi lozim.

Арзикулов А.Ш. Ўзбекистон иқтисодиётига инвестицияларни жалб қилиш механизмларини такомиллаштириш // GlobalBiz Summit: Business and Economic Strategies for the Future. – 2025. – №1. – С. 88–91.

Абдураззаков Д., Егамбердиев Х. Хорижий инвестициялар ва уларнинг Ўзбекистон иқтисодиётига таъсири // Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – Т.55, №1. – С. 103–107.

Толибжонов Х. Хорижий инвестицияларни жалб қилишда олиб борилаётган ислохатлар ва натижалар таҳлили // Nordic_Press. – 2025. – №7.0007.

Ёкубов Л.Б. Иқтисодиётни ривожлантиришда инвеститсияларни жалб қилиш механизмлари таҳлили // Қўқон университети хабарномаси. – 2023. – №9. – С. 99–101.

Камилов Д., Шайзакова Ш., Шайзакова Ш. Increasing the attractiveness of specialized regions to develop the flow of investments to the country // Economic Development and Analysis. – 2024. – Т.2, №4. – С.105–110.

Асабоев А.А. Макроиқтисодий барқарорликни таъминлашда инвестицион сиёсатнинг ўрни // Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2024. – Т.4, №3. – С. 327–333.

Гуломжонов Ф. Ўзбекистон иқтисодиётида хорижий инвестицияларнинг ўрни // Formation of Psychology and Pedagogy as Interdisciplinary Sciences. – 2024. – Т.3, №29. – С. 202–207.

Сайдали Р.Ў.ў. Хорижий инвестициялар самарадорлигини баҳолашнинг назарий ёндашувлари // Илм-фан тараққиётида замонавий методларнинг қўлланилиши. – 2025. – Т.1, №3. – С. 84–93.

Эшкулова Н.Н. Макроиқтисодий барқарорлик омиллари // Journal of Universal Science Research. – 2025. – Т.3, №6. – С. 277–286. URL: <https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/13072>

